



TA'LIM JARAYONIGA XALQARO BAHOLASH TIZIMINI JORIY ETISH

M.B.Abdulxaeva

Toshkent shahri CHilonzor tumanining 168 maktab o'qituvchisi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7137285>

ARTICLE INFO

Received: 27th September 2022

Accepted: 01st October 2022

Online: 03rd October 2022

KEY WORDS

PISA, o'quvchi, ta'lim, yutuq, xalqaro, dastur, dunyo, bilim, amaliyot, baho, test, sifat, monitoring, o'qish savodxonligi, matematik savodxonlik, tabiiy fanlar savodxonligi, kompyuter savodxonligi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari hamda "Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili" nomli Davlat dasturiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiyasi tomonidan xalqaro baholash tadqiqotlar, jumladan, OECD tashkiloti bilan PISA-2021 xalqaro baholash tadqiqotlarida ishtirok etish bo'yicha kelishuvga erishilgan edi.

O'zbekiston hukumati PISA tadqiqotlarini amalga oshirish, metodik yordam olish, so'rovlar o'tkazishda

ABSTRACT

Maqolada xalqaro baholash tizimini qo'llashning avzalliklari, uni qo'llashga oid mulohazalar xususida so'z yuritilgan.

ko'maklashish, loyihani amalga oshirish imkoniyatlarini tahlil qilish, salohiyatni oshirish va amalga oshirish rejalari, mamlakat uchun o'z loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ko'maklashish, milliy sifat nazorati va dasturini qo'llab-quvvatlash maqsadida boshqa mamlakatlar qatorida Avstraliya ta'lim tadqiqotlari Kengashiga qo'shildi.

O'quvchilarning ta'limiy yutuqlarini baholash bo'yicha xalqaro dastur-(inglizcha - Programme for International Student Assessment, PISA) - dunyoning barcha davlatlaridagi o'quvchilarning savodxonligini baholash va ushbu bilimlarini amaliyotda qo'llashni bilish darajasini baholovchi testdir. Bu testlar 3 yilda bir marotaba o'tkaziladi. Bunda 15 yoshli o'smirlar qatnashadi. 1997 yilda ishlab chiqilgan. 2000 yilda birinchi marotaba qo'llanilgan. Bu testlar Iqtisodiy



xamkorlik va rivojlantirish tashkiloti tomonidan konsortsiumda yetakchi xalqaro ilmiy tashkilot bilan milliy markazlar ishtirokida tashkillanadi. Konsortsiumni Avstraliya pedagogik tadqiqotchilar birlashmasi (ACER) Niderlandiya (Gollandiya) Milliy Pedagogik O'lchovlar (CITO) instituti ko'magida boshqaradi, AQSHning Pedagogik Test Xizmati (ETS), Yaponiya Ta'lim tizimadagi Milliy tadqiqotlar instituti (NIER); Aqsh Vestat (WESTAT) va dunyodagi boshqa nufuzli ta'lim tashkilotlari hamkorlikda olib boradi.

PISAda maktabining bilim sifati monitoringi 4 ta asosiy yo'nalish bo'yicha o'tkaziladi: o'qish savodxonligi, matematik savodxonligi, tabiiy fanlar savodxonligi va kompyuter savodxonligidir. So'nggi yillar natijasiga ko'ra rivojlangan davlatlarning PISA xalqaro tadqiqotlarida ishtirok etishlariga oid ma'lumotlarga ko'z tashlar ekanmiz o'qish savodxonligi bo'yicha dastlabki uchta o'rinni Xitoy, Singapur va Makao (Xitoy) egallaganligi, matematik savodxonlikda Singapur, Makao (Xitoy) Estoniya davlatlari yetakchilik qilishgan bo'lsa, tabiiy fanlarni o'zlashtirish sohasida oldingi o'rinlarni Xitoy (4ta provintsiyasi Pekin, SHanxay, Tszyansu va CHjetszyan), Singapur, Makao (Kitay) davlatlari egallaganligini ko'rishimiz mumkin.

PISA tadqiqotlarida o'qish savodxonligi o'quvchilarning yozma matnlarni tushunish qobiliyatini va o'z maqsadlariga erishish, jamiyat hayotida faol ishtirok etish uchun o'z bilim va imkoniyatlarni keng foydalanishga qaratilgan. PISA baholashda matnni o'qishni so'zma-so'z tushunish usuli emas, balki hayot maqsadlarini amalga oshirish uchun o'qilgan narsalarni tushunish va ishlatish qobiliyatiga ko'ra baholashni nazarda

tutadi. Matndan ma'lumot topish qobiliyatini rivojlantirish uchun talaba matnni ko'rib chiqishi, uning asosiy elementlarini aniqlashi va savolga qaraganda boshqa shaklda ifodalangan zarur ma'lumotlarni qidirishni talab qiladigan vazifalarni qo'llash talab etiladi. Matnni talqin qilish qobiliyatini baholash uchun talabalarga matndagi turli xil ma'lumotlarni solishtirish, unda ilgari surilgan g'oyalarni tasdiqlash uchun dalillarni aniqlash, muallifning fikrlaridan xulosa chiqarish yoki matnning mohiyatini tushunish taklif etiladi. Matnning mazmuni yoki shaklini baholash uchun quyidagilar zarur: topshiriqlarni bajaradigan talaba matnda topilgan ma'lumotni boshqa manbalardan olingan ma'lumotlar bilan bog'laydi; matndagi ma'lumotlarni dunyo haqidagi g'oyalarga asoslangan holda baholaydi; hamda o'z nuqtai nazarini himoya qilish uchun dalillarni topadi.

O'quvchilarning ta'lim sohasidagi yutuqlariga davlatning ta'lim sohasidagi siyosatiga muvofiq o'zgarishi mumkin bo'lgan ta'lim jarayoni, o'qitish va maktab resurslarini tashkil qilish bilan bog'liq bo'lgan turli omillar ta'sir ko'rsatadi. Ushbu omillar haqida ma'lumot talabalarning natijalarini talqin qilishda juda muhimdir. Bunday ma'lumotlarga quyidagi omillar kiradi:

- ☒ ta'lim muassasasining turi;
- ☒ ta'lim muassasasining joylashgan joyi;
- ☒ ota-onalarning ijtimoiy-iqtisodiy holati;
- ☒ aloqa tili;
- ☒ o'quvchilarning ta'lim jarayoniga munosabati;
- ☒ ta'lim jarayonini tashkil qilish bilan bog'liq omillar; ta'lim tashkilotlarida psixologik muhit.



PISA - tadqiqotining asosiy yo'nalishlaridan biri insonning kundalik hayotda matematikaning rolini aniqlash va matematikaga oid kognitiv ma'lumotlarni o'qish, izohlash va tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirish hisoblanadi. Matematik savodxonlik o'quvchilarning quyidagi qobiliyatlarini anglatadi:

- matematika fani yordamida atrof olamda yuzaga keladigan muammolarni aniqlash va hal qilish mumkinligini aniqlashlari;
- ushbu muammolarni matematika tilida shakllantirishlari;
- matematik faktlar va metodlarni qo'llash asosida ushbu muammolarni hal qilish;
- u yoki bu vaziyatda foydalanilgan yechim usullarini tahlil qilish;
- muammoni hisobga olgan holda olingan natijalarni sharhlash;
- qaror natijalarini shakllantirish va qayd etish.

PISA tadqiqotida o'quvchilarga olib borilayotgan tadqiqotlari doirasidagi o'quvchilarga ularni atrofidagi hayotining turli jihatlari bilan bog'liq bo'lgan va ularni hal qilish uchun u yoki bu darajada matematikani talab qiladigan haqiqiy muammoli vaziyatlarga yaqin bo'lgan matematik o'quv muammolari taklif etiladi (maktab hayoti, jamiyat, talabaning shaxsiy hayoti, kasbiy faoliyat, sport va boshqalar).

Tadqiqot kontseptsiyasiga muvofiq, har bir topshiriq ishtirokchi mamlakatlarning kelishilgan qaroriga binoan turli mamlakatlardagi talabalarning matematik tayyorgarligini taqqoslash uchun asos sifatida tanlangan to'rtta mazmunli sohalardan biriga mos keladi:

- miqdori;
- makon va shakl;
- o'zgarishlar va munosabatlar;
- noaniqlik.

Talabalarning matematik savodxonligi holati, materialning ma'lum bir mazmunga ega bo'lishidan tashqari, "matematik yetuklik" rivojlanish darajasi bilan tavsiflanadi. Talabalarning matematik malakasi tadqiqotda matematikadan foydalanishni talab qiladigan turli muammolarni muvaffaqiyatli hal etishni ta'minlaydigan "matematik bilimlar, ko'nikmalar, tajriba va inson qobiliyatlari kombinatsiyasi" deb ta'riflanadi. Tadqiqot matematik vakolatning uchta darajasini ajratib turadi: takrorlanish darajasi, aloqalarni o'rnatish darajasi, fikrlash darajasi.

Tabiiy fan savodxonligini o'rganishni quyidagi to'rtta sohaga bo'lib o'rganishni tavsiya etish mumkin:

- ☑ ilm-fan va texnologiyaga murojaat qilgan hayotiy vaziyatlarni aniqlash (kontekst);
- ☑ atrof-dagi dunyoni, shu jumladan, atrof-muhit haqidagi bilimlarni va ma'lum bir fanga oid ilmiy bilimlarga asoslangan texnikani tushunish);
- ☑ ilmiy masalalarni tan olish, tabiiy ilmiy hodisalarni tushuntirish uchun ilmiy bilimlarni qo'llash, aniq dalillar asosida xulosalar tuzish kabi vakolatlarni namoyish etish);
- ☑ tabiiy ilmga qiziqish.

Tabiiy fan savodxonligi tabiiy fanlar, tabiiy fan tushunchalari va tabiiy fan bilimlari qo'llanadigan vaziyatlar doirasida yaratilgan "umumiy tasavvur" qobiliyatlari kabi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi. Bunda tanlangan ko'nikma va tushunchalarni keng qamrovli tekshirish nazarda tutiladi. Asosiy e'tibor tavsiya etilgan savollardan tabiiy fanlar ma'lumotlariga asoslanib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarishga qaratiladi.



Umuman olganda, ta'limga xalqaro baholash dasturlarini joriy etish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Asosiy maqsad bilim oluvchi kadrlarni bilim sifatini ortishiga xizmat qilishidir.

3-sinf "O'zbek tili" darsligining dastlabki mavzusi "Tanishaylik" bo'lib, shu mavzu misolida PISA topshiriqlarini ishlab chiqamiz.

"Tanishaylik" matniga oid savollar»

1. Insonlar nima uchun bir-biri bilan tanishadilar?

A) suhbatlashish uchun B) bir-birlarini bilish uchun V) bir-birlari bilan muomala

qilishlari uchun D) nutq qobiliyatlarini rivojlantirish uchun

2. Mazkur matnda nima haqida so'z bormoqda?

A) insonlar haqida B) insonlarning muomalasi haqida V) suhbatlashish haqida D) insonlarning kommunikatsiyaga kirishishlariga

PIRLS matnini o'qish va tushunish sifatini xalqaro tadqiq qilish bo'yicha topshiriqlarga moslashtirilgan bunday vazifalar boshlang'ich maktab o'quvchilari tomonidan matnni o'qish va tushunish darajasini va sifatini keng doirada solishtirish imkonini beradi.

References:

1. Zadaniya k PIRLS. Otsenka kachestva chteniya i ponimaniya teksta uchaщimisiya nachalьnoy shkoly. Suslova G.V. Rossiya, KGU «Gagarinskaya srednyaya shkola». 2015 g. <https://infourok.ru/pirls-teksti-i-zadaniya-k-nim-dlya-proverki-kachestva-chteniya-i-ponimaniya-prochitannogo-981630.html>
2. S.Matchonov va boshq. 4-sinfda o'qish darslari. -T.: «o'qituvchi», 2017